



NOMODDIY AKTIVLAR HISOBI: BHMS VA MHXS TALABLARINING QIYOSIY TAHLILI HAMDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI

Rozmatova Umida

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0004-8649-0641

umidayuldashevnatmi@gmail.com

Annotatsiya. Nomodiy aktivlar bo'yicha amaldagi 7-son BHMS (Buxgalteriya hisobi milliy standarti) qoidalarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga uyg'unlashtirish bo'yicha fikr-mulohazalar yuritilgan. BHMSning tegishli bandlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan ilmiy takliflar va tavsiyalar berilgan. Natijada amaldagi 7-son BHMS "Nomoddiy aktivlar" nomli standart qoidalarini MHXS talablariga muvofiqligi ta'minlanadi va ularni korxonalar amaliyotida qo'llash imkoniyati yaratiladi.

Kalit so'zlar: nomoddiy aktivlar, gudvill, buxgalteriya hisobining milliy standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, schyotlar rejasi.

УЧЁТ НЕМАТЕРИАЛЬНЫХ АКТИВОВ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ТРЕБОВАНИЙ НСБУ И МСФО И НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ

Розматова Умида

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В работе рассмотрены вопросы гармонизации действующих правил 7-го национального стандарта бухгалтерского учёта (НСБУ) «Нематериальные активы» с требованиями международных стандартов финансовой отчётности (МСФО). Даны научные предложения и рекомендации по внесению изменений и дополнений в соответствующие пункты НСБУ. В результате обеспечивается соответствие положений действующего 7-го НСБУ требованиям МСФО и создаются возможности их практического применения в деятельности предприятий.

Ключевые слова: нематериальные активы, гудвилл, национальные стандарты бухгалтерского учёта, международные стандарты финансовой отчётности, план счетов.

ACCOUNTING FOR INTANGIBLE ASSETS: COMPARATIVE ANALYSIS OF NAS AND IFRS REQUIREMENTS AND DIRECTIONS FOR IMPROVEMENT

Rozmatova Umida

Tashkent State University of Economics

Abstract. The paper discusses the harmonization of the current rules of the 7th National Accounting Standard (NAS) "Intangible Assets" with the requirements of International Financial Reporting Standards (IFRS). Scientific proposals and recommendations are provided for introducing amendments and additions to the relevant provisions of the NAS. As a result, the compliance of the current 7th NAS "Intangible Assets" with IFRS requirements is ensured, creating opportunities for their practical application in enterprises.

Keywords: intangible assets, goodwill, national accounting standards, international financial reporting standards, chart of accounts.

Kirish.

Respublikamizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. MHXSlarni joriy qilish asosida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari xalqaro bozorga chiqish, raqobatbardoshlikni oshirish, moliyaviy jarayonlarni tizimli ravishda boshqarish, investorlarni jalb etish va jahon mamlakatlardagi kompaniyalar bilan o'zaro iqtisodiy aloqalarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Tan olish lozim, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 4611-sonli qarori, bu borada MHXSga o'tishda ulkan islohotlar davri boshlanganligi bilan muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Adabiyotlar sharhi.

MHXS joriy etish masalasida bir qator iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribasini o'rganish va ular erishgan yutuqlarni nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini o'rganishni taqozo etmoqda. *Standart* atamasi bu inglizcha "standard" - me'yor, namuna, etalon, model ma'nolarini anglatib, boshqa bir xil obyektlar bilan taqqoslashda foydalaniladi. Bu tushunchani bevosita buxgalteriya hisobi tizimida qo'llanilganda buxgalteriya hisobining har bir obyektlari uchun hisob yuritish qoidalari sifatida talqin etiladi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida jahondagi mamlakatlarda milliy darajada standartlarni ishlab chiquvchi jamoat tashkilotlari shakllantirilgan. Jumladan: ICAP (Pokiston), ASBJ (Yaponiya), ASB-SA (Janubiy Afrika), ASRB (Yangi Zelyandiya), FASAB, FASB (AQSH), MASB (Malaziya), Iran IASB (Eron), SASC (Sigapur), KSR PASB (Polsha) va h.k. Shulardan o'z ta'sir doirasi keng bo'lgan 1973-yilda tashkil etilgan Moliyaviy hisob standartlari Kengashidir (FASB). Bu tashkilot mustaqil va notijorat tashkiloti bo'lib, davlat va xususiy kompaniyalar va notijorat tashkilotlar uchun buxgalteriya hisobi va hisoboti standartlarini o'rnatadi (Umumiy qabul qilingan buxgalteriya hisobi tamoyillariga (USGAAP) amal qilgan holda). Shuningdek, "Yaponiya buxgalteriya hisobi standartlari kengashi" (ASBJ) tomondan ishlab chiqilgan standartlar ham jahonda kuchli, o'z obro'siga ega bo'lgan standartlardan biri hisoblanadi (Yaponiya umum qabul qilingan buxgalteriya hisobi tamoyillari - JGAAP sifatida tan olingan).

MHXSga berilgan ta'riflar va yondoshuvlardan shuni ko'rish mumkinki, yagona maqsad jahon miqiyosida buxgalteriya hisobini yagonaligini ta'minlashga qaratiladi. Jumladan: N.Sapojnikovaning fikricha: "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga yondashuvning mohiyati moliyaviy hisobotni shakllantirish prinsiplari va qoidalarini o'z ichiga olgan va har qanday mamlakatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan yagona standartlar to'plamini ishlab chiqishdir" (Sapojnikova, 2015). "Buxgalteriya hisobi jarayonlarini standartlashtirish g'oyasi MHXS Qo'mitasi tomonidan xalqaro moliyaviy hisobotlarni ishlab chiqish va nashr etish orqali amalga oshirilmoqda. Ushbu yondashuvning mohiyati har qanday mamlakatda har qanday vaziyatda qo'llaniladigan yagona standartlar to'plamini ishlab chiqishdir, bu esa milliy standartlardan voz kechishga olib keladi" (Generalova, 2008). Aynan ushbu fikrlar respublikamizda buxgalteriya hisobi tizimini MHXSga o'tkazish jarayoniga muvofiq keladi. Chunki yagona standartlarning amal qilinishi o'z-o'zidan milliy standartlarni ahamiyatini yo'qotib boradi. MHXS - bu kompaniyalarning iqtisodiyoti to'g'risidagi zamonaviy bilimlarning sintezidir, global biznes tajribasini umumlashtiradi. Ular turli xil iqtisodiy mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan, shuning uchun bu boshqaruv va hisobot ma'lumotlarining simbiozidir. MHXS qat'iy belgilangan ko'rsatmalar emas, garchi ular umumiy qabul qilingan bo'lsa ham, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va oshkor qilishda ularning ustuvorligi majburiy hisoblanmaydi, aksincha ixtiyoriy ravishda foydalanishga qaratiladi (Dmitriyeva, 2007).

MHXS moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun xalqaro prinsiplar tizimidir. Ular ko'plab mamlakatlarda moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun asos sifatida keng qo'llaniladi va qabul qilinadi. MHXS quyidagi hujjatlar yig'indisini aks ettiradi: MHXS qoidalariga kirish, moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish tamoyillari, standartlar va ularga tushuntirishlar. Ushbu



hujjatlar o'zaro bog'liq bo'lib, yagona tizimni tashkil qiladi va alohida qo'llanilishi mumkin emas, garchi ularning har biri o'ziga xos ma'noga ega (Babayev, 2012).

"Buxgalteriya hisobi standartlari"ga buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi aniq qoidalar to'plami deb ta'rif berishimiz mumkin. "Qoida" so'zi qonun hujjatlarida belgilangan qat'iy normalar yoki jamoatchilik tomonidan qabul qilingan asosiy tamoyillar bo'lishi mumkin. Standart buxgalteriya hisobi obyektiga yoki moliyaviy hisobot elementiga nisbatan aniq talablar o'rnatishi bilan, u buxgalteriya hisobining umumiy yo'nalishlarini belgilovchi buxgalteriya hisobi modellardan farq qiladi (Ibragimov, 2016).

Demak, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini qo'llash yoki uning qoidalarini milliy iqtisodiyotga muvofiqlashtirish bugun nafaqat respublikamizda, balki butun jahonda eng dolzarb masalalardan biriga aylanib qolgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolani yozishda nomoddiy aktivlar hisobi bo'yicha amaldagi 7-son BHMSni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo'yicha tizimli yondashuv, guruhlash, taqqoslama tahlil, induksiya, deduksiya, qiyosiy taqqoslash, nazariy va amaliy o'rganish, statistik tahlil, omilli tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Respublikamizda 2021-yildan boshlab MHXSga o'tishi kerak bo'lgan tashkilotlar ro'yxati tasdiqlandi va buxgalteriya xizmatlarida kamida uchta sertifikatlangan mutaxassis bo'lishi talab qilindi. MHXS bo'yicha kadrlar tayyorlash va malaka oshirishga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur qarorning 3-bandida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (hozirda Iqtisodiyot va moliya vazirligi) MHXSni joriy etish bo'yicha vakolatli organ etib belgilandi hamda buxgalteriya hisobining milliy standartlarini MHXSga muvofiq uyg'unlashtirish vazifasi belgilab berildi.

1-jadval

Buxgalteriya hisobi milliy standartlarini (BHMS) xalqaro standartlarga (MHXS) uyg'unlashtirish

T/r	Yangi tahrirda ishlab chiqilgan BHMSlar	Xalqaro standartlarga (MHXS) uyg'unlashtirilgan standartlar
1.	1-sonli BHMS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati"	1-son BHXS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" (IAS 1)
2.	5-sonli BHMS "Asosiy vositalar"	16-son BHXS "Asosiy vositalar" (IAS 16)
3.	22-sonli BHMS "Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi"	21-son BHXS "Valyuta kurslaridagi o'zgarishlarning ta'sirlari" (IAS 21)
4.	9-son BHMS "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot"	7-son BHXS "Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot" (IAS 7)
MHXS asosida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan BHMSlar		
5.	4-son BHMS "Tovar - moddiy zaxiralar" 5-son BHMS "Asosiy vositalar" 7-son BHMS "Nomoddiy aktivlar"	21-son BHXS "Valyuta kurslaridagi o'zgarishlarning ta'sirlari" (IAS 21)

Manba: tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi.

Natijada, o'tgan yillar davomida MHXS hujjatlarini O'zbekistonda tan olish, shuningdek, amaldagi buxgalteriya hisobi milliy standartlarini (BHMSlar) xalqaro standartlarga (MHXS) muvofiqlashtirish jarayonlari boshlandi. Masalan, 2024-yilda 4 ta BHMSlar yangi tahrirda ishlab chiqildi va MHXSga uyg'unlashtirildi, jumladan:

1-sonli BHMS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati", (2024-yil 6-avgust, r/r. 3544);

5-sonli BHMS "Asosiy vositalar", (2024-yil 9-avgust, r/r. 3546);

22-sonli BHMS "Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi", (2024-yil 19-dekabr, r/r. 3587);

9-son BHMS "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot", (27.12.2024-yil, r/r. 3592).

Shuningdek, 4-son "Tovar moddiy zaxiralar", 5-son "Asosiy vositalar" va 7 - son "Nomoddiy aktivlar" nomli BHMSlarga 22-sonli "Chet el valyutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi" BHMSdan kelib chiqib o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. (11.02.2025-yil, r/r. 3607).

2-jadval

Nomoddiy aktivlarga tegishli bo'lgan xalqaro va milliy standartning o'zaro taqqoslanishi

"Nomoddiy aktivlar" 7-son BHMS	"Nomoddiy aktivlar" 38-son BHMS
1-bob. Umumiy qoidalar	1. Standart maqsadi
Tartibga solish tizimi	2. Qo'llash doirasi
Asosiy jihatlari	3. Ta'riflar
Qo'llash doirasi	Nomoddiy aktivlar
Asosiy tushunchalar	Identifikatsiyalash
Tan olish mezonlari	Nazorat
Identifikatsiya qilish	Tan olish va baholash
Kelgusi iqtisodiy naf olish	Alohida harid qilish
Inventar obyekt sifatida	Biznes birlashuvi doirasida harid qilish
Nomoddiy aktivlar tarkibi	Tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarining tugallanmagan loyihasi bo'yicha kelgusi sarflar
2-bob. Nomoddiy aktivlarning kelib tushishi	Aktivlarni davlat grand yordamida olinishi
Balans qiymati va balansga olish	Aktivlarni ayriboshlash
3-bob. Nomoddiy aktivlarni dastlabki baholash	Tashkilotni o'zida yaratilgan gudvill va nomoddiy aktivlar
Nomoddiy aktivlarni boshlang'ich qiymati bo'yicha tan olinishi	Tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlar bosqichi
4-bob. Nomoddiy aktivlarga o'tkazilgan kapital qo'yilmalar	4. Xarajatlarni tan olish
5-bob. Nomoddiy aktivlarni qayta baholash	5. Tan olishdan keyingi baholash
6-bob. Xarajatlarni aks ettirish	Boshlang'ich qiymat modeli
7-bob. Amortizatsiyani hisoblash	Qayta baholash modeli
Amortizatsiya usullari	6. Foydali hizmat muddati
Nomoddiy aktivlarning foydali hizmat muddati	7. Aniq foydali hizmat muddatiga ega nomoddiy aktivlar
8-bob. Nomoddiy aktivlardan foydalanish huquqini berish bilan bog'liq operatsiyalar hisobi	Amortizatsiya muddati va usuli
9-bob. Gudvill hisobining xususiyatlari	Tugatish qiymati
10-bob. Nomoddiy aktivlarning chiqib ketishi	Amortizatsiya muddati va usulini qayta ko'rib chiqish
Nomoddiy aktivlar qiymatini balansdan chiqarish	8. Noaniq foydali hizmat muddatiga ega nomoddiy aktivlar
Moliyaviy natijalarni aniqlash	9. Balans qiymatining qoplanishi va qadrsizlanishdan zararlar
11-bob. Nomoddiy aktivlarni inventarizatsiyadan o'tkazish	10. Foydalanishni tugatish va hisobdan chiqarish
Inventarizatsiya vaqti va tartibi	11. Ma'lumotlarni yoritib berish
12-bob. Ma'lumotlarni yoritib berish	Umumiy qoidalar
Moliyaviy hisobotlarda yoritib beriladigan izohlar	12. O'tish qoidalari va kuchga kirish sanasi

Manba: tadqiqotlar natijasida muallif ishlanmasi.

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bundan 25 yil avval ishlab chiqilgan 25 ta BHMSdan (Konseptual asos bilan birga) bugungi kunga kelib, atigi 4 ta BHMS xalqaro standartlarga uyg'unlashtirildi va yangi tahrirda qabul qilindi. E'tibor berilsa, jami 25 ta BHMSdan 4 ta BHMS ya'ni 25 foizi, xali bu borada xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish masalasida, xali oldinda uslubiy jihatdan qilinadigan ishlar talaygina. Shunday bo'lsada, uyg'unlashtirildi deb ta'kidlanayotgan BHMSlarni xalqaro standartlar bilan taqqoslanganda o'zaro o'xshashlik va bog'liq jihatlari ko'rinmaydi, ya'ni avvalgi BHMSlarning aksariyat qoidalari va tuzilishi saqlanib qolingan. Demoqchimizki, milliy standartlarning mazmuni, uslubiyoti hamda uning qoidalarini deyarli 70-80 foizi xalqaro standartlarga uyg'unlashi kerak edi. Shundagina, biz yuqoridagi PQ - 4611-son qaror ijrosini to'liq ta'minlashga erishshimiz hamda kelgusida har qanday MHXS larni amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lamiz (kelajakda yangi BHMSlarni ishlab chiqishga ehtiyoj qolmadi). Xalqaro standartlarga uyg'unlashtirishga muhtoj bo'lgan BHMSlardan biri bu 7-son "Nomoddiy aktivlar" deb nomlangan standartdir.

Ushbu taqqoslama ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, BHMS va MHXS ning belgilangan qoidalari o'rtasida farqli jihatlarga ega. Masalan, BHMSda umumiy qoidalar ichida standartning maqsadi, qo'llash doirasi va ta'riflar kiritib yuborilgan. MHXSda esa bunga alohida e'tibor qaratiladi. Ayniqsa standartning maqsadiga, ya'ni ushbu standart nima maqsadda ishlab chiqildi va unda nimadur yoritib beriladi. Masalaning yana bir muhim jihati shundaki, BHMSda tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlar (TTKI) bosqichi bo'yicha tartib taomillari keltirib o'tilmagan, aksincha aynan ushbu TTKI bo'yicha bizning amaliyotimizda alohida BHMS joriy etilgan (11-son BHMS). Bu borada Qodirovning (2024) fikriga ko'ra, xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida 7-son "Nomoddiy aktivlar" hamda 11-sonli BHMS "Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlar" nomli standartlarni o'zaro qo'shib yuborish, moddalarini bir-biriga singdirib yuborish maqsadga muvofiqdir".

BHMSda buxgalteriya hisobida mulkning butligini ta'minlashga qaratilgan muhim jarayon-inventarizatsiya qilish tartibi saqlanib qolingan. Bu har bir mulk bilan bog'liq BHMSda uchraydi va xattoki, inventarizatsiyaga oid alohida BHMS ham ishlab chiqilgan. Xalqaro standartlarda bu tartib mavjud emas, o'rniga nazorat qilish qoidasidan foydalaniladi. Shuningdek, BHMSda aktivlarning qadrsizlanish tushunchasi keltirib o'tilmagan.

Tadqiqotlar natijasida biz amaldagi 7-sonli "Nomoddiy aktivlar" BHMSni (hozirgacha 4 ta BHMS MHXSga uyg'unlashgan bo'lsa, biz tomonimizdan taklif etilayotgan BHMS beshichisi bo'lishi mumkin) xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida quyidagi taklif va tavsiyalar berildi.

1. *"Nomoddiy aktivlar" 7-son BHMS ning maqsadini quyidagi tartibda aniq belgilash lozim:* Mazkur standartning maqsadi boshqa standartlar bilan belgilanmaydigan nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish tartibini belgilashdan iborat. Mazkur standart tashkilot tomonidan nomoddiy aktivni belgilangan mezonlarga javob berganda tan olish, balans qiymatini va foydali xizmat muddatini baholash, amortizatsiya hisoblash usullarini belgilash, balans qiymatidagi boshqa o'zgarishlarni baholash va hisobga olish hamda ularning chiqib ketishidan moliyaviy natijalarni aniqlash, shuningdek ular bo'yicha moliyaviy hisobotlarda muayyan ma'lumotlarni yoritib berilishini talab etadi.

2. *"Nomoddiy aktivlar" 7-son BHMS asosiy tushunchalar bo'yicha:* Mazkur standartning 5-chi bandini *"Mazkur Standartda quyidagi asosiy ta'riflardan foydalaniladi"* deb qayta nomlash maqsadga muvofiq. Sababi, halqaro standartlarda tushuncha emas, balki "ta'riflar" (Definitions) so'zi qo'llaniladi.

Mazur bandga qo'shimcha qilib quyidagi ta'riflarni kiritish lozim:



Balans qiymati - nomoddiy aktivning moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot (buxgalteriya balansi)da undan jamg'arilgan amortizatsiya va bunday aktivning qadrsizlanishidan jamg'arilgan zararlar chegirib tashlangandan so'ng aniqlanadigan summasidir;

Tajriba-konstruktorlik ishlari - yangi materiallar, qurilmalar, mahsulotlar, jarayonlar, tizimlar yoki xizmatlarni rejalashtirish (loyihalashtirish) uchun, ularni tijorat maqsadlarida ishlab chiqarishdan (foydalanishdan) oldin tadqiqot natijalarini (bilimlarni) qo'llash.

Haqqoniy qiymat - bu baholash sanasida bozor ishtirokchilari o'rtasidagi odatdagi operatsiyada nomoddiy aktivlarni sotishdan olinishi yoki majburiyatni o'tkazish uchun to'lanishi mumkin bo'lgan narxdir;

Tadqiqot - yangi ilmiy yoki texnik bilimlar va g'oyalarni olish maqsadida o'tkaziladigan asl va rejali izlanishlardir.

3. *"Nomoddiy aktivlar" 7-son BHMS asosiy qoidalaridagi inventar obyekt bo'yicha:* BHMSda "Nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobi birligi bo'lib inventar obyekt hisoblanadi" nomli 9-bandni to'liq chiqarib yuborish kerak deb hisoblaymiz. Chunki, inventarizatsiya masalasi xalqaro standartlarda nazarda tutilmagan, qolaversa inventarizatsiya uchun 19-sonli BHMS "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish" nomli alohida standart majud.

4. *"Nomoddiy aktivlar" 7-son BHMSning 2-Bob. "Nomoddiy aktivlarni kelib tushishi" bo'yicha:* Standartning 13-bandini xalqaroga muvofiqlashtirish maqsadida quyidagicha tahrir qilish taklif etildi

13-band. Nomoddiy aktivlar quyidagilar natijasida tashkilot balansiga kiritiladi:

alohida xarid qilish;

biznes birlashuv doirasida xarid qilish;

nomoddiy aktivlarni davlat granti yordamida olish;

nomoddiy aktivlarni ayriboshlash;

tashkilotni o'zida yaratilgan nomoddiy aktivlar;

ustav kapitaliga ulush ko'rinishida kelib tushish;

tekinga kelib tushish;

avval hisobga olinmagan ortiqcha nomoddiy aktivlar.

Tashkilot o'zida yaratilgan nomoddiy aktivlarni tan olish mezonlariga javob berishini baholash maqsadida aktiv yaratilishini quyidagi ikkita bosqichga ajratadi:

tadqiqot bosqichi;

tajriba konstruktorlik ishlari bosqichi.

"Tadqiqot" va "Tajriba konstruktorlik ishlari" atamaları ta'riflangan bo'lishiga qaramay, mazkur standart maqsadlarida "Tadqiqot bosqichi" va "Tajriba konstruktorlik ishlari bosqichi" atamaları kengroq ma'noga ega.

Agar tashkilot nomoddiy aktivni yaratish bo'yicha ichki loyihaning tadqiqot bosqichini tajriba konstruktorlik ishlari bosqichidan farqlay olmasa, u holda mazkur loyiha bo'yicha sarflarni faqat tadqiqot bosqichida amalga oshirilgan sarflar tarzida hisobga oladi.

Tadqiqot bosqichi - tadqiqotda (yoki ichki loyihaning tadqiqot bosqichidan) kelib chiqadigan nomoddiy aktiv tan olinmaydi. Tadqiqot (yoki ichki loyihaning tadqiqot bosqichini amalga oshirish) uchun qilingan sarflar ular yuzaga kelgan paytda xarajat sifatida tan olinadi. Tadqiqot faoliyatiga misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin:

yangi bilimlarni olishga qaratilgan faoliyat;

tadqiqotlar natijalarini yoki boshqa bilimlarni qo'llash sohalarini izlash, baholash hamda yakuniy tanlab olish;

muqobil materiallar, qurilmalar, mahsulotlar, jarayonlar, tizimlar yoki xizmatlarni izlash; va

yangi yoki takomillashtirilgan materiallar, qurilmalar, mahsulotlar, jarayonlar, tizimlar yoki xizmatlarga tanlangan muqobil variantlarni loyihalash, qurish va sinovdan o'tkazish.

Tajriba konstruktorlik ishlari bosqichi - tajriba konstruktorlik ishlaridan (yoki ichki loyihaning tajriba konstruktorlik ishlari bosqichidan) kelib chiqadigan nomoddiy aktiv tashkilot tomonidan faqat va faqat quyidagilarning barchasi ko'rsatib berilganda tan olinishi lozim:

foydalanish yoki sotish uchun yaroqli bo'lgan nomoddiy aktiv ishlab chiqilishini yakunlashning texnik jihatdan mumkinligi.

nomoddiy aktiv ishlab chiqilishini yakunlash va undan foydalanish yoki sotish bo'yicha niyati.

nomoddiy aktivdan foydalanishga yoki sotishga qodirligi.

nomoddiy aktivdan kelgusi ehtimoliy iqtisodiy naf olishning tahmin qilinayotgan usuli.

tajriba-konstruktorlik ishlarini yakunlash uchun yetarli darajada texnik, moliyaviy va boshqa resurslarning mavjudligi va nomoddiy aktivdan foydalanishi yoki uni sotishi mumkinligi.

tajriba konstruktorlik ishlari jarayonida nomoddiy aktivlarga tegishli sarflarni ishonchli baholashga qodirligi.

5. *"Nomoddiy aktivlar" 7-son BHMSning 3-Bob. "Nomoddiy aktivlarni dastlabki baholash" bo'yicha:* Standartning ushbu bob nomiga "tan olish" so'zini kiritish maqsadida quyidagicha tahrir qilish lozim *"Nomoddiy aktivlarni tan olish va dastlabki baholash"* deb nomlash.

Standartning mazkur bobini quyidagi jumlar bilan to'ldirish maqsadga muvofiq:

"Nomoddiy aktiv faqat va faqat quyidagi hollarda tan olinishi lozim:

tashkilot ushbu aktiv bilan bog'liq kutilayotgan kelgusi iqtisodiy nafni olish ehtimoli mavjud bo'lsa;

ushbu aktivning boshlang'ich qiymati ishonchli baholanishi mumkin bo'lganda.

Tashkilot dastlabki tan olish paytidagi ma'lumotlarga asoslangan holda, tashqi manbalardan olingan ma'lumotlarga ko'proq ahamiyat berishi kerak, shuningdek bunda kelgusi iqtisodiy nafga nisbatan aniqlik darajasini baholab boradi".

6. *"Nomoddiy aktivlar" 7-son BHMSning 5-Bob. "Nomoddiy aktivlarni qayta baholash" bo'yicha:* Standartning ushbu bob nomini "Nomoddiy aktivlarni tan olishdan keyingi baholash" deb nomlash lozim. Bunda nomoddiy aktivlar ikki hil modelda baholanadi va qo'shimcha qilib quyidagilar kiritilishi kerak:

boshlang'ich qiymat modelida;

qayta baholash modelida.

Boshlang'ich qiymat modeli - dastlab tan olingandan so'ng, nomoddiy aktiv, jamg'arilgan amortizatsiya va qadrsizlanishdan jamg'arilgan zararlar chegirilgan holda boshlang'ich qiymat bo'yicha hisobga olinadi.

Qayta baholash modeli - dastlab tan olingandan so'ng, nomoddiy aktiv, keyingi jamg'arilgan amortizatsiya va qadrsizlanishdan keyingi jamg'arilgan zararlarni chegirgan holda, qayta baholash sanasidagi haqqoniy qiymatni aks ettiradigan qayta baholangan qiymatda hisobga olinadi.

7. *"Nomoddiy aktivlar" 7-son BHMSning 7-Bob. "Amortizatsiyani hisoblash" bo'yicha:* Standartning ushbu bobidan nomoddiy aktivlarni foydali xizmat muddati bo'yicha tegishli bo'lgan 46-47 bandlarni alohida chiqarib, yangi bob nomi bilan qo'shish lozim.

Taklif etilmoqda: 8-Bob. "Nomoddiy aktivlarning foydali xizmat muddati".

Shuningdek, xalqaro standartlarga ko'ra, foydali xizmat muddatiga ega bo'lmagan nomoddiy aktivlar amortizatsiya qilinmasligi nazarda tutilgan (38-son BHXS, 89-bandi). Shu maqsadda biz ham amaldagi 7-son BHMSning tarkibiga *"Foydali xizmat muddati noaniq bo'lgan nomoddiy aktiv"* tushinchasini kiritish va quyidagi jumla bilan to'ldirish taklif etildi:

"Noaniq foydali xizmat muddatiga ega nomoddiy aktivlar amortizatsiyalanmaydi. Tashkilot nomoddiy aktivning qoplash qiymatini uning balans qiymatiga taqqoslagan holda, noaniq foydali xizmat muddatiga ega nomoddiy aktivni qadrsizlanish testidan o'tkazadi, bunda:

har yili;

nomoddiy aktivning kadrsizlanishi alomati paydo bo'lgan vaqtda.

Tashkilot foydali xizmat muddatini baholashni qayta ko'rib chiqadi. Amortizatsiyalanmaydigan nomoddiy aktivlarning foydali xizmat muddati hodisalar va holatlar ushbu aktivlarning foydali xizmat muddatini noaniq deb baholashni tasdiqlashda davom etadimi yoki yo'qligini aniqlash uchun har hisobot davrida qayta ko'rib chiqilishi lozim. Agar ular shunday baholashni tasdiqlamasa, u holda foydali xizmat muddatining noaniqlikdan aniqlikka o'zgarishi tashkilot hisob siyosatida hisob bahosining o'zgarishi tarzida hisobga olinadi".

8. *"Nomoddiy aktivlar" 7-son BHMSning 7-Bob. "Amortizatsiyani hisoblash" bo'yicha:*

Standartning 49-bandida nomoddiy aktivlardan intensiv foydalanilganda, shuningdek ilmiy-texnikaviy jarayonning katta ta'sirida nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi quyidagi usullarda hisoblanadigan jadallashtirilgan amortizatsiya yo'li bilan ifodalanadi:

ikki baravar amortizatsiya me'yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli;

yillar yig'indisi usuli (kumulyativ usul).

Bizning fikrimizcha bu yerda "ikki barobar" so'zini olib tashlash maqsadga muvofiq, ya'ni *"kamayib boruvchi qoldiq usuli"* deb nomlash kerak deb hisoblanadi. Tashkilot qoldiqni qanchaga kamaytirishni o'zi belgilaydi va baholaydi. Ya'ni bu yerda ikki barobar deb chegara belgilamaslik lozim. Bunday tartib xalqaro standartlarda ham va tajribada mavjud emas.

9. *"Nomoddiy aktivlar" 7-son BHMSning 10-Bob. "Nomoddiy aktivlarni chiqib ketishi" bo'yicha:* Standartning ushbu bob nomini *"Nomoddiy aktivlardan foydalanishni tugatish va hisobdan chiqarish"* deb qayta tahrir qilish maqsadga muvofiq. Ushbu bobga xalqaro standartlarga muvofiq quyidagi bandni kiritish lozim:

"Nomoddiy aktivni tan olish quyidagi hollarda bekor qilinadi:

hisobdan chiqarilganda;

undan foydalanishdan yoki hisobdan chiqarilishidan hech qanday kelgusi iqtisodiy naf kutilmaganda.

Nomoddiy aktivni tan olishni bekor qilishdan kelib chiqadigan foyda yoki zarar hisobdan chiqarishdan sof pul mablag'lari tushishi, agar mavjud bo'lsa, ushbu aktivning balans qiymati o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Ular aktiv sifatida tan olinishi bekor qilingandan so'ng foyda yoki zarar tarkibida tan olinishi lozim. Bunday foyda asosiy faoliyatdan tushum sifatida tasniflanmasligi lozim".

10. *"Nomoddiy aktivlar" 7-son BHMSning 11-Bob. "Nomoddiy aktivlarni inventarizatsiyadan o'tkazish" bo'yicha:*

Standartning ushbu bobni to'liq standartdan chiqarib tashlab taklif etilmoqda. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, nomoddiy aktivlarning inventarizatsiyasi 19-sonli BHMS "Inventarizatsiyani tashkil qilish va o'tkazish" standartida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Mazkur standartda qayta takrorlash va alohida bob sifatida qayd etish shart emas deb hisoblaymiz.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqotlar natijasida nomoddiy aktivlarni hisobga olishning me'yoriy-huquqiy asoslardan biri 7-son BHMSni xalqaro standartlarga uslubiy jihatdan takomillashtirish bo'yicha berilgan ilmiy taklif va tavsilar asosida quyidagi xulosalar qilindi:

birinchidan, BHMSlar asosan iqtisodiyotimizni milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amal qiladi, bu standartlar xalqaro bozorlarga chiqish, raqobat qilish va investorlarni jalb qilish imkonini bermaydi;

ikkinchidan, BHMS qoidalarini xalqaro standartlarga imkon qadar yaqinlashtirish va uyg'unlashtirishni talab etadi;

uchinchidan, BHMS bo'yicha moliyaviy hisobotlarni tayyorlovchi korxonalar asta-sekin xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatiga ega bo'lishi natijasida, mazkur standartga o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritib borilishi lozim bo'ladi;

to'rtinchidan, xalqaro standartlarga uyg'unlashtirilgan BHMSlarni har yili qayta ko'rib chiqish va MHXSdagi o'zgarishlarni inobatga olgan holda qo'shimcha va o'zgartirishlarni kiritib borish zarur bo'ladi;

beshinchidan, 7-son BHMS "Nomoddiy aktivlar" BHMS qoidalarini xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish imkoniyatini beradi.

Fikrimizcha BHMSlarning yakunida xalqaro standartlar kabi o'tish qoidalari va kuchga kirish sanasi bobi yoki bo'limini kiritish lozim. Bu esa, mazkur standartlarda oxirgi marta qancha o'zgarishlar bo'lgani va qaysi standartlarni o'rnini egallashi hamda kuchga kirish sanalari haqida aniq ma'lumotlarni olish imkoniyatini beradi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

"Nomoddiy aktivlar" (2022) 38-son Buxgalteriya hisobi xalqaro standarti (BHXS-38). Rasmiy tarjima.

"Nomoddiy aktivlar" (2024) 7-son Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS-7). O'zRes AV 9-avgust, 3547-son, 13-band.

Ismanov, I.I. (2009) Uzoq muddatli aktivlarning buxgalteriya hisobi va auditi metodologiyasini takomillashtirish. I.f.d. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. 37b.

Ochilov, I.K., Rizayev, N.K. & Kalonov, M. (2022) Buxgalteriya hisobi: Darslik (nomutaxassisliklar uchun). Toshkent: Iqtisod-moliya, 272 b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020) Qaror: "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". 4611-son, 24-fevral. Available at: <https://lex.uz/docs/4746047>.

Qodirov, S. (2024) Nomoddiy aktivlar hisobi va tahlili uslubiyotini takomillashtirish. Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati.

Rizayev, N.K. (2004) Nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobi va moliyaviy tahlilini takomillashtirish. I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.

Rizayev, N.K. (2019) Intellectual mulk obyektlari hisobi va tahlilini tashkil etish metodologiyasi. I.f.d. (DSc) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.

Tashnazarov, S. (2023) Moliyaviy buxgalteriya hisobi 1: Darslik. Samarqand: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, STEP-SEL MCHJ nashriyoti, 580 b.

Xudoykulov, A. (2023) Nomoddiy aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish. Iqtisod fan bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati, 35 b.

